

O' ZBEKISTONDA BANK TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

To'ychiyev Otabek Shamshiyevich
O'zmilliybank AJ Toshkent viloyat
bosh boshqarmasi bosh buxgalteri

Annotatsiya:

ushbu maqolada bugungi globallashtirish sharoitida O'zbekistonda bank tizimi, uning rivojlanish istiqbollari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: moliya, bank, raqamli iqtisodiyot, strategiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация:

в данной статье даны мнения о банковской системе Узбекистана, перспективах ее развития в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: финансы, банк, цифровая экономика, стратегия, конкурентоспособность.

Abstract:

This article provides ideas about the banking system in Uzbekistan and its development prospects in the conditions of today's globalization.

Keywords: finance, banking, digital economy, strategy, competitiveness.

Bugun jahon moliya-bank tizimi shiddatli raqamlashuv jarayonlari ketayotgan sharoitda, O'zbekiston moliya-bank tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash yo'lidagi muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish, raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari keng o'rganilmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo'lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, natijada yangi bir hodisa – raqamli iqtisodiyot paydo bo'ldi. Raqamli texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham



seziladi. Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o‘tib borayotgan qismidir. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko‘rib chiqish kerak. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o‘zgaruvchan voqelikni aks ettirish uchun o‘zgartirish zarurligini ta’kidlaydi.

Jahon banki hisob-kitoblari ko‘ra, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko‘payishi yillik YaIM ko‘lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o‘sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyatini belgilaydigan ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – tranzaksiya sektorining o‘sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko‘rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini birlashtiradi.

Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko‘p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo‘ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko‘p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur‘atlarda rivojlanadi.

O‘zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta’sir etadigan qudratli tizimga aylangunga qadar uzoq evolyutsion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘lda qator qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko‘zga ko‘rinda boshladi. Bu, bir tomondan xo‘jaliklarning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag‘lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so‘nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil — ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida



universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

Ushbu yillarda aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Mazkur yo'nalishda banklar o'z faoliyatini dunyoviy amaliyotning “oltin” printsiptan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya'ni, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan “Iste'mol krediti to'g'risida” gi va “Ipoteka to'g'risida” gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

O'zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o'zlari taklif etayotgan xizmatlari ko'lamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlar faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga kirishdi.

2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF– 5992-sonli “2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida” gi Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo'yicha “Yo'l xaritasi” hamda strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Mazkur Strategiya Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, shuningdek xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendensiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan:

bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;



davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalariga bozor stavkalaridan kam bo'lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an'anaviy "taraqqiyot banklari" vazifasini bajarishi;

kreditlashning yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital yetarlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etayotganligi;

imtiyozli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi natijasida moliya bozorida narx signallarining noto'g'ri shakllanishi, shuningdek pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlarining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;

yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi (konsentratsiyasi) natijasida bank tizimining valyuta, kredit va likvidlilik xatarlariga bardoshlilikining zaifligi; davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining asosan korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboplik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Bank tizimi — bu pul mablag'larini saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanadigan, o'z mijozlariga kreditlar va boshqa xizmatlarni taqdim etadigan banklar va boshqa moliya institutlar to'plamidir. Bank tizimi iqtisodiy infratuzilmaning asosiy elementi bo'lib, moliyaviy operatsiyalarning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Turli mamlakatlarda bank tizimi turli xil tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Ammo odatda bank tizimi bir necha darajalarga bo'linadi. Birinchi darajada mamlakatning bank tizimini tartibga soluvchi Markaziy banklar mavjud. Markaziy bank foiz stavkalarini belgilash, pul massasini tartibga solish, boshqa banklarni nazorat qilish kabi funktsiyalarni bajarishi mumkin. Keyingi bosqichda mijozlarga xizmat ko'rsatadigan va depozitlarni qabul qiladigan, kreditlar beradigan va hokazo tijorat banklari mavjud.

Yana bir daraja mintaqaviy banklar bo'lib, ular mahalliy jamoalar uchun moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali bitta mintaqada yoki shtatda ishlashlari mumkin. Ba'zi mamlakatlarda, shuningdek, bitta korxonada xodimlari yoki bitta jamoa aholisini



o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ittifoq a'zolari uchun moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kredit uyushmalari bo'lishi mumkin.

Bank xizmatlaridan foydalanish to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi 2000 yilda Mesopotamiyada topilgan. O'sha paytda banklar oltin va kumush kabi qimmatbaho narsalarni saqlash uchun xizmat qilishgan. Vaqt o'tishi bilan banklar qarzlar va kreditlar berishni boshladilar. Uyg'onish davrida bank ishi yanada rivojlandi. Bank uylari juda yuqori obro'ga ega bo'ldi.

Bank tizimi o'sishda va rivojlanishda davom etmoqda, bu bizga kredit kartalaridan tortib elektron hisoblargacha bo'lgan ko'plab vositalarni taqdim etadi. Bank tizimi oddiy odamlarning biznesiga va hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi yuzasidan. <https://bank.uz/uz/news>.
2. Ahmadaliyev Sarvarbek (munozara) 18:01, 8-Aprel 2023 (UTC).
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 05.11.2019 yildagi O' RQ-580-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni " Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida. 19.04.2023. № ЎРҚ-831.
5. Алексеев П.В. Банковское дело: управление в современном банке. Учебное пособие для ВУЗов / П.В. Алексеев, сост. -М.: КноРус, 2018.
6. Тавасиев А.М. Банковское дело: Учебник для бакалавров / А.М. Тавасиев. — М.: Юрайт, 2017.

